

RUS TILIDAGI O‘ZLASHMA SO‘ZLAR

Abdug‘ofirova Zilolaxon Ziyoxiddin qizi

Qo‘qon davlat universiteti, “O‘zbek tili va adabiyoti” yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola “Rus tilidagi o‘zlashma sozlar” mavzusiga bagishlangan bo‘lib maqolada rus tilidagi o‘zlashma so‘zlarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni tahlil qilingan. Tadqiqotlar orqali rus tiliga turkiy, nemis va fransuz tillaridan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarning tarixiy manbalari, kirib kelish sabablari hamda qo‘llanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, o‘zlashma so‘zlar masalasiga oid tilshunos olimlarning nazariy qarashlari ko‘rib chiqilib, ularning rus tili lug‘at boyligini kengaytirishdagi o‘rni tahlil etilgan. Maqolada o‘zlashma birliklarning rus tili fonetikasi, leksikasi va grammatik tizimiga ta’siri haqida ham fikr yuritiladi. Maqolada toplangan tahlil qilingan ma'lumotlar rus tilining rivojlanishida tillararo aloqalarning muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: rus tili, o‘zlashma so‘zlar, leksik o‘zlashuv, turkiy tillar, nemis tili, fransuz tili, lug‘at boyligi, til aloqalari, leksikologiya, fonetik moslashuv, grammatik moslashuv, so‘zlar etimologiyasi

Аннотация. Данная статья посвящена теме «Заимствованные слова в русском языке». В статье проанализированы процессы формирования и развития заимствованных слов в русском языке. В ходе исследований освещаются исторические источники, причины проникновения и особенности употребления заимствованных слов, пришедших в русский язык из тюркских, немецкого и французского языков. Также рассматриваются теоретические взгляды лингвистов, касающиеся проблемы заимствований, и анализируется их роль в расширении словарного состава русского языка. В статье также рассматривается влияние заимствованных единиц на фонетику, лексику и грамматическую систему русского языка. Полученные и проанализированные в статье данные показывают, что межъязыковые контакты играют важную роль в развитии русского языка.

Ключевые слова: русский язык, заимствованные слова, лексическое заимствование, тюркские языки, немецкий язык, французский язык, словарный состав, языковые контакты, лексикология, фонетическая адаптация, грамматическая адаптация, слова этимология.

Abstract. *This article is devoted to the topic of “Borrowed Words in the Russian Language”. The article analyzes the processes of formation and development of borrowed words in the Russian language. Through research, the historical sources, reasons for borrowing, and usage features of words borrowed into Russian from Turkic, German, and French languages are examined. In addition, the theoretical views of linguists on the issue of loanwords are reviewed, and their role in expanding the vocabulary of the Russian language is analyzed. The article also discusses the influence of borrowed units on the phonetic, lexical, and grammatical system of the Russian language. The collected and analyzed data in the article show that interlingual relations play an important role in the development of the Russian language.*

Keywords: *Russian language, borrowed words, lexical borrowing, Turkic languages, German language, French language, vocabulary enrichment, language contacts, lexicology, phonetic adaptation, grammatical adaptation, word etymology.*

Kirish

Til jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, u doimiy ravishda rivojlanib va boyib boradi. Dunyoda biror til boshqa tillardan mutlaqo ajralgan holda yashamaydi. Xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va madaniy aloqalar natijasida tillar bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Ana shu jarayon natijasida bir tildan ikkinchi tilga turli so‘zlar o‘tadi va ular o‘zlashma so‘zlar deb ataladi.

O‘zlashma so‘zlar — bu bir tilning lug‘at tarkibiga boshqa tildan kirib kelgan va shu til me’yorlariga moslashgan so‘zlardir. Bunday so‘zlarning paydo bo‘lishi tabiiy til taraqqiyotining muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Odatda yangi predmetlar, tushunchalar, ilmiy kashfiyotlar yoki madaniy hodisalar bilan birga ularni ifodalovchi nomlar ham boshqa tillardan qabul qilinadi. Shu sababli o‘zlashma so‘zlar tilning lug‘at boyligini kengaytirishga, yangi ma’nolarni ifodalashga va muloqot imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Rus tili ham asrlar davomida ko‘plab xalqlar va madaniyatlar bilan aloqada bo‘lganligi sababli uning lug‘at tarkibida turli manbalardan kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar muhim o‘rin egallaydi. Bu so‘zlar rus tilining rivojlanish tarixini, boshqa xalqlar bilan munosabatlarini hamda jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Shuning uchun rus tilidagi o‘zlashma so‘zlarni o‘rganish tilning shakllanish jarayonini, lug‘at boyligining manbalarini va til taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.



Asosiy qism

Rus tilida o‘zlashgan so‘zlar tarixi va iste‘moldagi orni. Rus tili dunyodagi eng boy va rivojlangan tillardan biri hisoblanadi. Uning lug‘at boyligi asrlar davomida boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan bo‘lgan aloqalar natijasida shakllanib borgan. Shu sababli rus tilida ko‘plab o‘zlashma so‘zlar mavjud bo‘lib, ular turli davrlarda turli tillardan kirib kelgan. Rus tiliga eng ko‘p so‘zlar turkiy, yunon, lotin, fransuz, nemis va ingliz tillaridan o‘zlashgan. Har bir davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlari til lug‘atiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatgan. Masalan, qadimgi davrlarda Vizantiya bilan aloqalar natijasida yunon tilidan diniy va ilmiy atamalar kirib kelgan. Keyinchalik lotin tilidan fan, tibbiyot va huquq sohalariga oid terminlar o‘zlashtirilgan. Til – xalq tarixi, madaniyati va boshqa xalqlar bilan bo‘lgan aloqalarining yorqin ko‘zgidir. Dunyodagi ko‘plab tillar singari rus tili ham asrlar davomida boshqa xalqlar tillari bilan o‘zaro ta‘sirida rivojlanib kelgan. Ayniqsa, rus va turkiy xalqlar o‘rtasidagi uzoq yillik siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy aloqalar natijasida rus tiliga turkiy tillardan ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan. Bugungi kunda bu so‘zlarning aksariyati rus tilining ajralmas qismiga aylanib, kundalik nutqda faol qo‘llanib kelmoqda. Bu kabi so‘zlar anchaginani tashkil etadi ulardan namunalar keltirib ularning tarixiga, kelib chiqishiga to‘xtalamiz.

Stakan – yog‘och kosa, bu so‘z ko‘pchilikni hayron qoldirishi mumkin balki kimdirlar bu turkiy so‘z emas deb hisoblasa ham bu taajjubli emas, lekin bu so‘z turkiy zaminda paydo bo‘lgan rivojlangan so‘zlarimizdan biri hisoblanadi faqat uzoqroq yo‘l yurib kelgani uchun tanimay turibsiz xolos. So‘zlashuvda odamlar stakanni istakan deyishi bejiz emas. Chunki so‘z boshida ikki undoshning yonmayon kelishi o‘zbek tiliga xos emas. Stakan rus tili ta‘sirida shunday ko‘rinish olgan. Eski o‘zbek tilida, ya‘ni chig‘atoychada to‘stug‘on, tustig‘on, to‘stug‘an shaklida qo‘llangan bu so‘z ruschada tovush o‘zgarishlariga uchragan: dostokan’ > stokan > stakan. “Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” to‘stug‘on va tustig‘on so‘zini qimiz quyib ichiladigan idish; yog‘och kosa deb izohlagan: Halol ona sutidekdur gar o‘zbekim tutsa, Tobuq qilib yukunib tustig‘on ichinda qimiz. (Alisher Navoiy, “Xazoyinul-maoniy”). To‘stag‘an so‘zi hozirgi qozoq, qirg‘iz, tatar, boshqird tillarida ba‘zi talaffuz o‘zgarishlari bilan ishlatiladi. Bu so‘z qadimgi rus tiliga ming yillar oldin o‘zlashgani ehtimoli katta. Chunki 1356-yilga oid rus yozma yodgorliklarida dostakan’ so‘zi qayd etilgan.

Loshad – axta ot, ming yillar oldin rus tilida loshad so‘zi bo‘lmagan. Ot kon so‘zi yordamida ifodalangan. Keyinchalik turkiy tillar ta‘sirida loshad ham iste‘molga kirgan. Loshad alasha va ot so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Alasha turkiy tillarda ot, axta ot ma‘nolarini anglatgan. Turkiy qavmlar orasida juda ommalashgan bu so‘z Sharqiy Yevropa tillariga ham ko‘chib o‘tgan. Alasha ba‘zan ot so‘zi bilan ham ishlatilgan, ruschaga ayni shu shakli o‘zlashgan. Ba‘zi olimlar fikricha, alasha ruchaga losha shaklida o‘tgan, so‘ng unga –d qo‘shimchasi qo‘shilgan. Ukrain tilida esa losha shakli saqlangan va u qulun, toycha ma‘nosini anglatadi. Alashaning birinchi tovushi tushib qolishi favqulodda holat emas. Rus tiliga turkiy tillardan o‘tgan so‘zlarda bunday o‘zgarishlar uchrab turadi. Masalan, kulba, kapa ma‘nosidagi olachuq so‘zi ruschaga lachuga shaklida o‘tgan. Losha loshak shakliga kiringach, xachir ma‘nosiga ega bo‘lgan. So‘z so‘ngidagi -k boshqa bir turkizm –ishak, ya‘ni eshak ta‘sirida yuzaga kelgan.

Karandash — qalam, Bu so‘zlarning bari turkiy qora so‘zidan o‘sib chiqqan. Kara kam o‘zgarishga uchragan, u jazo ma‘nosida qo‘llanadi. Kariy esa qorato‘riq, ayg‘ir, jigarrang kabi ma‘nolarga ega. Qora bu o‘rinda bir yumalab, jigarrangga aylangan. Кароконьы ham kariyga ma‘nodosh, qorato‘riq otni anglatadi. Karandash so‘zi qora va tosh so‘zlaridan yasalgani, qalam ma‘nosiga egaligi ko‘pchilikka ma‘lum. Bu so‘zdagi toleni qarang, o‘zimizning so‘zimizni rus tiliga berib, uning o‘rniga uzoq yunon tilidan qalamni olib kelganmiz. Rus tiliga qora o‘zakli boshqa so‘zlar ham o‘zlashgan. Chunki tarixda Kara nomli va shu o‘zakli bir necha joy nomlari bor.

Rus tili lug‘at tarkibining shakllanishida german tillari, xususan nemis tilining o‘rni alohida ahamiyatga ega. Rossiya va Germaniya o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy hamda madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida rus tiliga nemis tilidan ko‘plab leksik birliklar kirib kelgan. Ayniqsa, XVII–XVIII asrlarda Rossiyaning Yevropa davlatlari bilan munosabatlari kengayishi, shuningdek, Pyotr I tomonidan amalga oshirilgan islohotlar davrida nemis tilining ta‘siri yanada kuchaydi. Bu davrda harbiy ish, hunarmandchilik, savdo, texnika, ma‘muriy boshqaruv va kundalik turmushga oid ko‘plab atamalar rus tiliga o‘zlashtirildi. Nemis tilidan kirgan so‘zlarning muhim xususiyati shundaki, ularning aksariyati muayyan kasb-hunar, texnika va harbiy sohaga oid tushunchalarni ifodalagan. Vaqt o‘tishi bilan bu so‘zlar rus tilining fonetik va grammatik me‘yorlariga moslashib, faol lug‘at tarkibidan mustahkam o‘rin egalladi. Shu sababli nemischa o‘zlashmalar rus tilining



tarixiy taraqqiyoti, lug‘at boyligining kengayishi hamda Yevropa tillari bilan o‘zaro ta‘sirini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Шлагбаум (nem. Schlagbaum) — yo‘lni to‘svuchi to‘siq, Шлагбаум so‘zi rus tiliga nemis tilidagi Schlagbaum leksemasidan o‘zlashgan. Ushbu so‘z Schlag (“zarba”, “urish”, “tushirish”) va Baum (“daraxt”, “to‘sin”, “ustun”) qismlaridan tarkib topgan bo‘lib, dastlab yo‘lni to‘sib qo‘yish uchun ishlatiladigan yog‘och to‘siq ma‘nosini anglatgan. O‘rta asrlarda Germaniya hududlarida shahar darvozalari, bojxona punktlari va harbiy postlarda harakatni nazorat qilish maqsadida ko‘tarilib-tushiriladigan maxsus to‘sinlar qo‘llanilgan va ular Schlagbaum deb nomlangan. XVII–XVIII asrlarda Rossiyaning Germaniya bilan siyosiy, harbiy va iqtisodiy aloqalari kuchayishi natijasida mazkur atama rus tiliga шлагбаум shaklida kirib kelgan. Dastlab u harbiy va bojxona sohalarida qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik transport tizimining rivojlanishi bilan temiryo‘l kesishmalari, avtomobil yo‘llari hamda turli muassasalar kirish qismidagi mexanik to‘siqlarni ifodalash uchun ishlatila boshlagan. Hozirgi kunda шлагбаум so‘zi rus tilining faol lug‘at tarkibiga kirib, yo‘l yoki kirish-chiqishni vaqtincha cheklovchi maxsus qurilma ma‘nosida keng qo‘llaniladi. Bu so‘z rus tiliga nemis tilidan o‘zlashgan harbiy-texnik va ma‘muriy terminlarning yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

Бутерброд (nem. Butterbrot) — sariyog‘li non, Бутерброд so‘zi rus tiliga nemis tilidagi Butterbrot so‘zidan o‘zlashgan. Ushbu so‘z Butter (“sariyog‘”) va Brot (“non”) komponentlaridan tashkil topgan bo‘lib, asl ma‘nosi “sariyog‘ surtilgan non” degan tushunchani anglatadi. Germaniya va boshqa nemis tilida so‘zlashuvchi hududlarda bu atama oddiy kundalik taomlardan biri sifatida keng qo‘llanilgan. XVIII asrda Rossiyada Yevropa madaniyati va turmush tarzining keng tarqalishi, ayniqsa G‘arbiy Yevropa bilan aloqalarning kuchayishi natijasida mazkur so‘z rus tiliga бутерброд shaklida kirib kelgan. Vaqt o‘tishi bilan so‘zning ma‘nosi kengayib, nafaqat sariyog‘ surtilgan nonni, balki ustiga kolbasa, pishloq, go‘sht, baliq yoki boshqa mahsulotlar qo‘yilgan har qanday ochiq sendvichni ham anglatadigan bo‘ldi.

Fransuz tili rus tili lug‘at boyligining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa XVIII–XIX asrlarda Rossiya zodagonlari va saroy doiralari orasida fransuz tili katta nufuzga ega bo‘lgan. Bu davrda fransuz tili diplomatiya, madaniyat, adabiyot va kundalik muloqot tili sifatida keng qo‘llanilgan. Natijada rus tiliga

fransuz tilidan ko‘plab so‘zlar kirib kelgan. Fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlar asosan siyosat, harbiy ish, san‘at, moda, gastronomiya va maishiy hayot sohalariga oid bo‘lib, bugungi kunda ham boshqa tillar singari rus tilida ham bu so‘zlarning ta‘sirini iste‘moldagi o‘rnini va mavqeyini korishimiz mumkin.

Костюм so‘zi rus tiliga fransuz tilidagi costume so‘zidan o‘zlashgan. Fransuz tilida bu so‘z dastlab “kiyinish usuli”, “libos”, “muayyan vaziyat yoki kasbga mos kiyim” ma‘nolarini anglatgan. Uning ildizi esa italyancha costume va lotincha consuetudo (“odat”, “urf-odat”) so‘zlariga borib taqaladi. XVIII–XIX asrlarda Rossiyada fransuz tili aristokratiya va saroy muhitining asosiy muloqot tillaridan biri bo‘lgan. Shu davrda Yevropa modasi bilan bog‘liq ko‘plab atamalar qatori costume so‘zi ham rus tiliga kirib kelgan va костюм shaklini olgan. Dastlab bu atama tantanali yoki sahna kiyimlarini ifodalagan bo‘lsa, keyinchalik ma‘nosi kengayib, bir-biriga mos tikilgan kiyimlar majmuasini, ya‘ni pidjak, shim va ba‘zan jilet dan iborat kiyim to‘plamini anglatadigan bo‘lgan. Vaqt o‘tishi bilan костюм so‘zi rus tilining fonetik va grammatik tizimiga to‘liq moslashib, faol iste‘moldagi so‘zlardan biriga aylangan. Hozirgi kunda u rasmiy, ishbilarmonlik yoki maxsus maqsadlarda kiyiladigan kiyimlar majmuasini ifodalash uchun keng qo‘llaniladi.

Балет so‘zi rus tiliga fransuz tilidagi ballet so‘zidan o‘zlashgan. Biroq bu atamaning kelib chiqishi undan ham qadimiyroq bo‘lib, italyancha balletto (“kichik raqs”) so‘ziga borib taqaladi. XVI–XVII asrlarda balet san‘ati Italiyada shakllanib, keyinchalik Fransiyada rivojlanib, mukammal sahna san‘ati darajasiga ko‘tarilgan. Shu sababli ushbu san‘at turi va uning nomi Yevropa mamlakatlariga aynan fransuz tili orqali tarqalgan. XVIII asrda Rossiyada Yevropa madaniyati va san‘atiga qiziqish ortishi natijasida fransuz teatr va raqs maktablarining ta‘siri kuchaydi. Fransuz balet ustalari Rossiyaga taklif qilinib, saroy teatrlarida faoliyat yurita boshladilar. Ana shu davrda ballet atamasi rus tiliga балет shaklida kirib kelgan. Vaqt o‘tishi bilan balet Rossiyada yuksak darajada rivojlandi va milliy san‘atning muhim qismiga aylandi. Bugungi kunda балет so‘zi rus tilida musiqa jo‘rligida ijro etiladigan sahna raqsi san‘atini anglatadi.

Rus tiliga o‘zlashma so‘zlar ta‘siri, ularning o‘rni ahamiyati haqida ko‘plab nazariy qarashlar mavjud bo‘lib bir qator olimlar bu borada izlanishlar olib borgan. Misol qilib aytadigan bo‘lsak Viktor Vinogradov rus tili leksikologiyasi va uning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda katta hissa qo‘shgan olimlardan biridir. U rus tili lug‘at tarkibini tarixiy qatlamlarga ajratib tahlil qilgan va o‘zlashma so‘zlarning til



rivojlanishidagi o‘rnini ilmiy asoslab bergan. Vinogradovning tadqiqotlarida rus tili lug‘atining shakllanishida yunon, turkiy, nemis va fransuz tillarining ta’siri alohida ko‘rsatib berilgan. Olimning fikricha, o‘zlashma so‘zlar tilga tayyor holda kirib kelmaydi. Ular avval fonetik, grammatik va semantik moslashuv bosqichlaridan o‘tadi. Masalan, fransuzcha costume so‘zining rus tilida костюм, nemischa Schlagbaum so‘zining шлагбаум shaklini olishi ana shu moslashuv jarayonining natijasidir. Vinogradov aynan shu jarayonlarni tahlil qilib, o‘zlashma so‘zlarning rus tili tizimiga qanday singib ketishini ilmiy jihatdan izohlab bergan. Shuningdek, u o‘zlashmalarni rus tili lug‘at boyligining tabiiy tarkibiy qismi deb hisoblagan va tilning rivojlanishi boshqa xalqlar bilan tarixiy-madaniy aloqalarsiz yuz bermasligini ta’kidlagan.

Rus tilidagi o‘zlashma so‘zlar nafaqat lug‘at boyligining kengayishiga, balki tilning ayrim grammatik xususiyatlariga ham ta’sir ko‘rsatgan. Biroq bu ta’sir leksik sathdagi ta’sirga nisbatan ancha cheklangan. O‘zlashma so‘zlar rus tiliga kirgach, uning grammatik qoidalariga moslashadi va shu orqali grammatik tizimning ayrim bo‘limlarida o‘z aksini topadi. Avvalo, o‘zlashma so‘zlar morfologiya sohasiga ta’sir ko‘rsatadi. Rus tiliga kirgan yangi otlar ma’lum grammatik rod (erkak, ayol yoki o‘rta rod) kategoriyasiga mansub bo‘lib qoladi va kelishik hamda son kategoriyalari bo‘yicha turlanadi. Masalan, fransuz tilidan kirgan костюм so‘zi erkak rodiga mansub bo‘lib, костюма, костюму, костюмом kabi shakllarda qo‘llanadi. Nemis tilidan o‘zlashgan шлагбаум so‘zi ham xuddi shu tarzda rus tili grammatik tizimiga moslashgan. Bundan tashqari, ayrim o‘zlashma so‘zlar asosida yangi so‘zlar yasaladi. Masalan, ingliz tilidan kirgan спорт so‘zidan спортсмен, спортивный, спортивность kabi birliklar hosil qilingan. Bu holat o‘zlashma so‘zlarning rus tilidagi so‘z yasalishi tizimiga ham faol kirib borganini ko‘rsatadi. O‘zlashma so‘zlar fonetika bilan ham bog‘liq. Rus tilida ilgari kam qo‘llangan ayrim tovush birikmalari va talaffuz xususiyatlari chet tillardan kirgan so‘zlar orqali kengroq tarqalgan. Masalan, fransuz va nemis tillaridan kirgan ayrim so‘zlarda uchraydigan tovush birikmalari rus tili talaffuz me’yorlariga moslashtirilgan.

Xulosa va takliflar

Mazkur maqola yakuni sifatida shunday xulosaga kelishimiz mumkin, ushbu maqolada rus tilidagi o‘zlashma so‘zlarning tarixiy rivojlanishi va ularning turli tillardan kirib kelish jarayoni tahlil qilingan bo‘lsa, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rus tilidagi o‘zlashmalarni faqat lug‘at boyligining kengayishi sifatida emas, balki



tilning ichki tizimi va tashqi tarixiy sharoitlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik natijasi sifatida ham baholash mumkin. Maqolada ko‘rib chiqilgan turkiy, nemis va fransuz tillaridan kirgan so‘zlar rus tilida turli sohalarni qamrab olgan holda shakllanganini ko‘rsatadi: turkiy tillar kundalik hayot va moddiy madaniyatni, nemis tili texnika va ma‘muriy tizimni, fransuz tili esa madaniyat va ijtimoiy hayot leksikasini boyitgan. Bu esa o‘zlashmalarning tasodifiy emas, balki ehtiyoj va tarixiy sharoitlar bilan bevosita bog‘liq jarayon ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zlashma so‘zlar tilning tabiiy rivojlanish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning til tizimidagi aksidir. Rus tili tarixida turli davrlarda yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlar va xalqaro munosabatlar yangi tushunchalar hamda atamalarni qabul qilish zaruratini yuzaga keltirgan. Natijada o‘zlashma so‘zlar tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirib, uning kommunikativ va funksional salohiyatini oshirgan.

Bugungi globallashuv davrida ham o‘zlashma so‘zlarning kirib kelish jarayoni davom etmoqda. Shu sababli o‘zlashmalarni o‘rganish nafaqat til tarixini yoritish, balki zamonaviy til taraqqiyotining yo‘nalishlarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, rus tilidagi o‘zlashma so‘zlar uning boyligi va rivojlanishining muhim omillaridan biri bo‘lib, tilning boshqa xalqlar va madaniyatlar bilan uzviy aloqada shakllanib kelayotganini yaqqol namoyon etadi.

Mening fikrimcha bu mavzuga yangi yondashuv sifatida shunday deyish mumkinki, o‘zlashma so‘zlar rus tilida faqat “kirib kelgan birliklar” emas, balki tilning ichki rivojlanish mexanizmini harakatga keltiruvchi omil sifatida ham xizmat qiladi. Ya’ni ular tilni statik emas, balki doimiy o‘zgarib, yangilanib boruvchi tizimga aylantiradi. Aynan shu jarayon rus tilining zamonaviy global kommunikatsiya sharoitiga moslashuvini ham ta’minlaydi. Shuningdek, o‘zlashma so‘zlarning fonetik, morfologik va semantik moslashuvi shuni ko‘rsatadiki, har bir chet til elementi rus tiliga kimgach, o‘z asl ko‘rinishini yo‘qotib, yangi lingvistik muhitga moslashgan mustaqil birlikka aylanadi. Bu holat tilning ichki barqarorligi va moslashuvchanligi bir-birini to‘ldirib borishini anglatadi.

O‘zlashma so‘zlar til “qarz olishi” emas, balki “tajriba almashishi” jarayonidir. Har bir o‘zlashma so‘z til tarixining ma’lum bir davridagi madaniy va ijtimoiy aloqalarning izini saqlab qoladi. Shu bois rus tilidagi o‘zlashmalarni o‘rganish



nafaqat lingvistik, balki tarixiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Shanskiy N. M. Hozirgi rus tili leksikologiyasi. – Moskva: Librokom, 2015.
2. Krysin L. P. Hozirgi rus tilidagi chet tillardan kirgan soʻzlar. – Moskva: Nauka, 2008.
3. Fasmer M. Rus tilining etimologik lugʻati. – Moskva: Progress, 1986.
4. Reformatskiy A. A. Tilshunoslikka kirish. – Moskva: Aspekt Press, 2016.
5. Ojegov S. I., Shvedova N. Yu. Rus tilining izohli lugʻati. – Moskva: Azbukovnik, 2010.
6. Vinogradov V. V. Soʻzlar tarixi. – Moskva, 1999.
7. Jamolxonov H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
8. Mahmudov N. Til va jamiyat. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2013.
9. Nurmonov A. Oʻzbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2002.
10. Yoʻldoshev B. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2007.
11. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
12. Hojiyev A. Oʻzbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. – Toshkent, 2004.
13. Mengliyev B. Hozirgi oʻzbek tili. – Toshkent: Tafakkur Boʻstoni, 2018.
14. Oʻzbek tilining izohli lugʻati (5 jildlik). – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006–2008.
15. Rahmatullayev Sh. Oʻzbek tilining etimologik lugʻati. – Toshkent: Universitet, 2000.

Research Science and
Innovation House

